

XOTIN-QIZLARNING ZAMONAVIY BOSHQARUV JARAYONLARIGA INTEGRATSIYALASHUVI TENDENSIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Tajieva Dilnoz Bahodirovna

DBA mustaqil tadqiqotchisi O'zLiDeP

Toshkent shahar Kengashi Yoshlar muammolarini o'rganish va tadbirkorlarni

qo'llab-quvvatlash bo'limi mudiri

dilnozatajiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21777114>

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning zamonaviy boshqaruv jarayonlariga ta'rif berilib, xotin-qizlarning zamonaviy boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuvi tendensiyalarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: Xotin, qizlar, zamonaviy, boshqaruv, tendensiyalari, ilmiy, nazariy, integratsiyalashuv, «mental xususiyatlar», «genotip», «identiklik», «arxetip», «stereotip» «sotsial xotira», Prezident, Zardushtiylik, Davlat, jamiyat, Dialektik uslub, Markaziy Osiyo, immanent

Kirish. Ma'lumki, ijtimoiy jarayonlar xotin-qizlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, an'analar, hayotiy maqsad va intilishlari, atrofdagi shaxslarga munosabatlari - voqelikni ijtimoiy anglashning jamoaviy talqini nuqtai nazaridan sotsiologiyaning predmeti va ob'ekti, metodologiyasi-ilmiy izlanishni fundamental sotsiologik nazariyalari, metod va usullar asosida tizimli tadqiq qiladi.

Xotin-qizlarning zamonaviy boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, integratsiyalashuv jarayonlarining tendensiyalarini ilmiy-nazariy o'rganish, ularni nazariy-metodologik asoslash, xotin-qizlarning zamonaviy jarayonlariga integratsiyalashuv omillarini tahlil qilish, xotin-qizlarning integratsiyalashuv jarayonida ularning ijtimoiy faollik motivlarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur bobda yuqoridagi masalalar ilmiy tahlil qilingan va bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Natija. Xotin-qizlarni zamonaviy boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuvini sotsiologik tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini o'zlikni o'rganish, gender tengligiga erishish, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy faollashuv, ma'naviy, ijtimoiy qutblanishdagi o'zgarishlarga oid zamonaviy sotsiologik nazariyalar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Har qanday davlatning adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan g'amxo'rliqi bilan belgilanadi. Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo'lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi»¹.

Hayotimizda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning harqachongidan kuchayishi, ijtimoiy hayotning tobora individuallashuvi, shaxsning jamiyatdagi roli, mavqei, ta'sirining oshishi mazkur muammoni o'rganishni yanada dolzarb qilib qo'yadi. O'zgarishlar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi ilmiy va texnologik inqilob davrida ayol omili faol harakat sub'ektiga aylanib borayotganligi, an'anaviy ayol timsoli boshqacha ko'rinish va shaklda integratsiya bo'layotganligini, yangi xususiyatlarni kasb etayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyatini tarkibiy funksional tahlil etish nazariyasi asosida quyidagicha ilmiy tahlil qilindi:

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 7-martdagi O'zbekiston xotin-qizlariga tabrigi. Xalqaro kongress markazi. <https://sputniknews.uz/20220308/shavkat-mirziyoev-xotin-qizlarni-8-mart-bilan-tabriklati-23201198.html>.

birinchidan, umumsotsiologik metodologiya darajasida anglash, ilmiy ob'ektivlik, tarixiylik, ishonchlilik va boshqa tamoyillar asosida ijtimoiy faktlar va ob'ektiv reallikning sotsiologik talqini ishlab chiqildi;

ikkinchidan, so'nggi 10 yildagi jadallashgan ijtimoiy voqelikning inson salohiyatlarini ro'yobga chiqarish maydoni, xususan, integrativ darajadagi xotin-qizlarni rivojlantiruvchi jarayon sifatida namoyon bo'layotganligi o'rganildi;

uchinchidan, ijtimoiy faoliyatning gender tenglikni ta'minlash zaruriyati nuqtai nazaridan ahamiyatli ekanligini nazariy tahlil etildi;

to'rtinchidan, ijtimoiy faoliyatning milliy o'zlikni anglash, o'zini-o'zi namoyon etish maydoni va imkoniyati ekanligi tizimli tadqiq etildi;

beshinchidan, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini barqaror kuchaytirishning pozitiv jihatlar hamda unga ko'rsatiluvchi negativ omillar ta'siri qiyosiy tahlil etildi.

Xotin-qizlarning zamonaviy jarayonlarga integratsiyalashuvini belgilashda, uni ilmiy tahlil etishda ijtimoiy faoliyat qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirish, ularning tub mohiyatini bilish hamda imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat qonuniyatlari qadriyatlar madaniyatining shakllantirilishi, o'zlashtirilishi, saqlanishi va ularning integratsiyasi jarayonida yuzaga keluvchi ob'ektiv va sub'ektiv holatlarga asoslangan, ichki va tashqi shartlangan, barqaror maqsadlarga qaratilgan muayyan ko'rsatmalar, o'zaro aloqa va munosabatlar tizimidir. Bunga gumanizm nuqtai-nazaridan yondashuv, voqelikni yangilashga qaratilgan ijodiy (kreativ) va innovatsion yondashuv, insonning asosiy ma'naviy manfaati, talab va ehtiyojlarning qoniqtirilganlik holati hamda uning muttasil o'sib borishini keltirish mumkin.

Jamiyatda xotin-qizlarning faolligini ta'minlash orqali integratsion jarayonlarni yo'lga qo'yish mumkin. Shu bilan birga, ayollarning ijtimoiy faolligini o'rganishda «ijtimoiy jarayonlar», «ijtimoiy omillar», «ijtimoiy xususiyatlar», «ijtimoiy jihatlar», «ijtimoiy qiyofa» kabi tushunchalar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, xotin-qizlar zamonaviy jarayonlariga integratsiyalashuvini tadqiq etishda «mental xususiyatlar», «genotip», «identiklik», «arxetip», «stereotip» «sotsial xotira» kategoriyalari ham muhim o'rin tutadi.

Xotin-qizlarning zamonaviy jarayonlariga integratsiyalashuvini ijtimoiy hodisa sifatida tarkibiy-funksional tahlil etish, anglash bir necha bosqichda namoyon bo'ladi:

birinchidan, voqelikni qadriyatli va aniq maqsadli darajada anglash, bu darajada ayollarning ijtimoiylashuv jarayonlari faollashadi. Jamoaviy va individual qadriyatlarning o'zaro uyg'unlashuviga ham imkon yaratiladi.

ikkinchidan, instrumental-nazariy daraja bo'lib, ijtimoiy hodisa va jarayonlarda ayollarning ijtimoiylashuvida motivlar, sabablar konkret sotsiologik tadqiqot usullari orqali oydinlashadi.

uchinchidan, texnologik darajada bo'lib, ijtimoiy faoliyatning amaliyoti, bu jarayonlarni loyihalashtirish, real vaziyat, ijtimoiy muloqot jarayonlarida amalga oshiriladigan madaniy-tarbiyaviy faoliyat hamda innovatsiyalarni tatbiq qilish, jarayonning turdosh faoliyatlardagi talqini sifatida anglanishini namoyon etadi.

Bugungi kunda davlat va jamiyat hayotida xotin-qizlarning ishtirokini, o'rni va maqomini yuksaltirish uchun birinchi galdagi vazifalar xotin-qizlar turmush tarzi va faoliyatiga bo'lgan munosabat, ya'ni, jamoatchilik fikrini ijobiy tomonga o'zgartirish lozim bo'ladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash– islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir»².

O'z tadqiqotimizda zamonaviy boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuvi tendensiyalari masalalarini o'rganishda TFAN asosida quyidagicha guruhlashtirdik. Bu tasnif boshqa tadqiqotlarda keltirilgan yondashuvlardan nisbatan to'laqonli va bizning nuqtai-nazarimizni ifodalashda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi:

² Mirziyoev Sh. 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi», 30 dekabr 2020 yil, №276 (7778). <https://lex.uz/ru/>

“Birinci guruh. Sharq allomalarining xotin-qizlar ijtimoiy qiyofasi bilan bog‘liq qarashlari, fikr va mulohazalaridan tashkil topgan. Masalan, Zardushtiylik ta’limotida³ xotin-qizlar axloqi nuqtai nazaridan faol inson, harakatchan shaxs xulq atvorining asosiy mezonlari, mehnatsevarligi bilan birga, farzand tarbiyalashi, orastaligi, ezgu ish qilishi ham e’tiborga olingan.

Axloqiylik xalq og‘zaki ijodida ham ayollar fazilatning bosh mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, Zarina-jangchi ayol o‘z xalqi mustaqilligini homiysi, shaharlarni bunyod etuvchi ulug‘vor obraz sifatida, Sparetra haqidagi rivoyatda, bir tomondan, “jasur va sabotli ayol jangchining siymosi, ikkinchi tomondan fidoyi ma’shuqa, sodiq umr yo‘ldosh” sifatida gavlaladi. To‘marisga qarshi janglarda Kir Amudaryo ortidagi cho‘llar ichiga kirib ketib, orqa tomonda qolgan tayanch qo‘shinlaridan uzilib qolib, mag‘lubiyatga uchraydi va jangda halok bo‘ladi.. Tumaris g‘alabadan keyin Kirning boshini qon to‘ldirilgan meshkopga solishni buyuradi.

Ayollarga xos immanent belgilar to‘g‘risida mulohaza yuritganda, mil.av. 1-ming yillikda yashagan xitoylik faylasuf ayol Szin-Nin Sunning quyidagi fikrlarini qayd etish joiz: «Ayollar go‘zallik ijodkoridir»⁴. Unda ayollar o‘zini go‘zallik, soflik va Yerdagi tartibning muxtor vakilasi sifatida tutishi zarurligi uqtirilgan. «Hayot ayolning qo‘llariga muhtojdir», deb qayd etar ekan uning fikricha, ayollar liderligi va tadbirkorligi sharqona an‘analarga, xususan, Dao falsafasiga mos kelib, Sharq ayoli qanday faoliyat bilan shug‘ullanmasin, dono ayol, u go‘zallikni targ‘ib etuvchi, axloqiy ideallarni o‘zida ifoda qiluvchi timsol bo‘lib qolaveradi.

Sharq mutafakkiri Nizomulmuluk (1018-1092 y.y.) esa «Siyosatnoma» asarining 43-bobida «Ular mavjudligining maqsadi – naslni saqlashdan iborat»⁵, – deb yozilgan.

Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarlarida hayolilik, ehtiyotkorlik, iffat, uyalish, or-nomus ayollarga xos, ular qadr-qimmatini oshirilishi bayon qilishgan. Xususan, Alisher Navoiy xotin-qizlarning qiyofasidagi ma’naviy o‘zgarishlarni mustahkamlashga bag‘ishlagan asarlarida: «Er yuzida o‘zining aql-zakovati, mard va donoligi, go‘zal husni, andisha va sabr-toqati, mehr va sadoqati bilan dunyoga dong taratgan xotin-qizlar juda ko‘pligi» alohida ta’kidlagan. Axloq masalasiga Abdulla Avloniy alohida to‘xtalgani diqqatga sazovor. Xususan, A.Avloniy aytganidek: «Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirk, inson har vaqt shu ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdir... Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir»⁶, Abdurauf Fitrat asarlarida xotin-qizlarning mavqei masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikkinchi guruhga oid sotsiologik nazariy-metodologik yondashuvlarni xotin-qizlar masalasini ijtimoiy hodisa va sotsial jarayon sifatida yoritgan G‘arb olimlarining asarlarida kuzatish mumkin. Jumladan, O.Kont, G.Spenser, I.Kant, M.Veber, E.Dyurkgeym, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalar jamiyatda xotin-qizlarning nafaqat tutgan o‘rni, balki madaniyat va sivilizatsiyaga qilgan ijtimoiy ta’siri to‘g‘risida batafsil ma’lumot berishgan⁷. Muammoni yoritishda oila-nikoh munosabatlarining ijtimoiy ko‘rsatkich sifatida ilgari surish mumtoz sotsiologiyaning asosiy masalalaridan biri bo‘lgan.

Uchinchi guruhga mansub mahalliy olimlarning zamonaviy tadqiqotlarini soha yo‘nalishlari bo‘yicha 6 ta guruhga bo‘lib o‘rgandik⁸, deb keltiradi.

Mamlakatimizda ko‘zga ko‘ringan sotsiolog olim, sotsiologiya fanlari doktori, professor M.Bekmuradovning fikricha, «Ayollar ijtimoiy faoliyati xotin-qizlarni o‘rganish va bilish bilan

³ Avesto. -T.: Sharq, 2000. - B.48. Avesto – tarixiy-adabiy yodgorlik. – T.: “Sharq” NMAK, 2001. B. 3-20.

⁴ Szin-Nin Sun. Iskustvo voyni. Drevnekitayskaya mudrost Sun-Szi dlya jenshin, stremyashixsya k uspehu. – M.: EKSMO, 2008. - S.114.

⁵ Siaset-name. Kniga o pravlenii vazira XI stoletiya Nizam Al-Mulka/ Per., vvedeniye v izuch. pamyatnika i primecheniya prof. B.N.Zaxodera. –Moskva-Leningrad. 1949.-S.179

⁶ Avloniy A. Toshkent tongi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashr, 1979. – 246 b.

⁷ Qarang:Bekmuradov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. –T.: Yoshlar nashriyot uyi.– 2020.

⁸ G‘afforova M. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlar mavqei. Monografiya.Toshkent: “Yangi kitob”, 2017. B.17.

bog'liq sohalar, xususan, sotsiologiya, psixologiya, tarix, huquq, madaniyatshunoslik va boshqa shu yo'nalishdagi fanlar doirasidagi tadqiqot natijalarini ichiga oladi va ularga tayanadi»⁹.

Xotin-qizlar masalalarini sotsiologik faoliyatda tadbiq etishda nazariy-metodologik asoslarni bilish katta ahamiyatga ega. Ilmiylik, xolislik, tarixiylik metodlari tarixni yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi. Birinchidan, xotin-qizlarni jamiyatda faolligini ta'minlash borasida konseptseptual yondashish asosida tarixni davrlarga bo'lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Eng asosiy vazifalardan yana biri – mustaqillik davrida yaratilgan yangi tadqiqotlar asosida voqeylikni ob'ektiv o'rganishdir.

Ilmiylik bilan bir qatorda xolislik turadi. Bunda xotin-qizlar bo'yicha tahlil qilinayotgan har bir tarixiy voqea-hodisalarni xolis, haqqoniy ravishda o'rganish yoki tarixnavisning xohish-irodasidan tashqarida, voqea-hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish ko'zda tutiladi.

Har bir tadqiqotchi shaxs sifatida o'zining fikri-mulohazalari, idroki va boshqa his-tuyg'ular orqali atrofini o'rab turuvchi muhit bilan uzviy ravishda bog'liq. Bu bog'liqlik unga o'z ta'sirini o'tkazadi. Xolislik talab qiladigan qoidalar shundan iboratki, ushbu yo'nalishda madaniy taraqqiyotni o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan yoki shu taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan jamiki voqea-hodisalarni hech bir o'zgarishlarsiz, qanday bo'lib o'tgan bo'lsa, o'sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosalar chiqarib yaxlit holga keltirish o'ta muhimdir.

Bu holatda aniq manbaviy asoslarga tayanish, jarayonlarning o'zaro chambarchas bog'liqligini asoslash lozim bo'ladi. Bu jarayonda hududlar o'rtasidagi xotin-qizlarning rivojlanish jarayonlarini o'zaro solishtirish, qiyoslash va taqqoslash faqat ijobiy natijalar berishi tabiiy holdir. Xotin-qizlar muammolarini o'rganishning uslubiy asoslaridan yana biri voqea va hodisalarni dialektik tarzda o'rganishdir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi.

Bu uslub xotin-qizlar masalalarini o'rganishda uni to'raligicha, voqea-hodisalarni bir-biri bilan bog'liqlikda, ayrim tarixiy voqelikni o'rgatuvchi fanlarni ham bir butunlikda, uning bo'laklarini ajratib olmaslik va voqea-hodisalarni doimo o'zgarishda, rivojlanishda o'rganishni taqozo qiladi. Biror bir davr haqida fikr-mulohaza yuritilayotgan bo'lsa, ana shu davrning o'ziga xos xususiyatlarini anglab olib, uni ko'rsatishni talab qiladi. Dialektik uslubga asoslanib, xotin-qizlar muammolarini umumiylik va alohidalik qoidalardan kelib chiqqan holda tushunish lozim.

Dialektik uslub xotin-qizlar masalalarini avvalo Markaziy Osiyo, qolaversa, jahonda xotin-qizlar masalalari bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Chunki mavjud bo'lgan har bir xalq, millat yoki elatda xotin-qizlar faqat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib tursa-da, butun insoniyat taraqqiyoti xotin-qizlar masalalari bilan bevosita umumiy bog'liqdir. Haqiqatdan ham, o'zbek xotin-qizlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi jahonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar va global dunyo taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq.

Xotin-qizlarning zamonaviy jarayonlariga integratsiyasini o'rganishda tarixiylik uslubi ham alohida o'rin egallaydi. Bu uslub turli davrlarda xotin-qizlar bilan bog'liq jarayonida sodir bo'lgan voqea-hodisalarni o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqea-hodisa bilan boshqasini sabab-oqibatli bog'lanishi ham ko'rsatiladi. Tarixiylik voqea-hodisalarni qay tarzda sodir bo'lganligini, jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularning roli to'g'risida to'g'ri, haqqoniy fikr yuritishga o'rgatadi.

Tarixiylik uslubi xalqning o'tmishiga, hozirgi zamon va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qarashni talab qiladi. Bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan merosni qanchalik chuqur va har tomonlama o'rgansak, anglab yetsak hamda keng targ'ib etsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunib, kelajakni yorqin tasavvur etamiz.

⁹ Bekmuradov M.B. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2016.– B.59.

Ma'lumki, har qanday zamonaviylik an'anaviylik bilan hamohanglikda ijtimoiy hodisalarni tashkil etib kelgan. Xususan, muayyan etnomadaniy va diniy toifalarga mansub ijtimoiy tabaqalar aynan ijtimoiy mansublik negizida avlodlar an'anaviy jamoa sifatida umumiy turmush tarzini yuzaga keltirganlar¹⁰.

Ijtimoiy munosabatlar inson faoliyatining eng universal namoyon bo'lishi, deb baholanadi¹¹. Har qanday munosabatlar odamlarning o'zaro aloqalarga kirishishi, xatti-harakatlari orqali bir-biriga ta'sir o'tkazishiga asoslanadi. Bunda muloqot jarayoni vujudga keladi. O'zaro muloqot esa, kishilik munosabatlarining muhim ijtimoiy «poydevori» hisoblanadi. Har bir odamning insoniylik qiyofasi (mijozi, intellektual xususiyatlari, ruhiy qobiliyatlari, madaniyati, dunyoqarashi va h.k.) muloqotda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, insonlararo muloqot ularni yo ijobiy xatti-harakat va faoliyat sari yoki nomaqbul (destruktiv) xulq-atvorga yo'naltirishi mumkin.

Shu boisdan ham, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy xususiyatlari ham ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmonida belgilangan ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan «Ayollar daftari»ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy - huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi 145-sonli «Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari shaklidagi «Ayollar daftari» ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil qilish belgilangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xotin-qizlar muammolarini hal qilish, jamiyat ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash orqali takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, u orqali ayollar hayotini o'z-o'zidan mukammal tartibga solish qiyin. Bu jarayonda ayollarning o'zini-o'zi anglash bilan bog'liq holatlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan ayolning ma'naviy-axloqiy salohiyatini, zamonaviy jarayonlarga integratsiyalashuvini jamiyatning ijtimoiy va axloqiy sog'lomligi, ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas muhim omili sifatida o'rganish ustuvor ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlarning zamonaviy ijtimoiy jarayonlariga integratsiyalashuvini falsafiy va sotsiologik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin. Falsafiy yondashuv o'zida faoliyatiy, texnologik, gumanistik-ma'naviy va erishiluvchan yondashuvlarni mujassamlashtiradi. Faoliyatiy yondashuv doirasida ayolning ma'naviy-axloqiy hayotini takomillashtirishning asosi va yo'li sifatida ijodiy faoliyati tahlil qilish istiqbollari ochiladi.

Bugungi kunda Xotin-qizlarning zamonaviy jarayonlari borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar mazkur muammoni nazariyasi asosida yanada teranroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur ilmiy muammoning yechimida mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar, Prezidentimizning farmon, qaror va farmoyishlari, nutq va murojaatlari, asarlarida belgilab berilgan ko'rsatma hamda vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 7-martdagi O'zbekiston xotin-qizlariga tabrigi. Xalqaro kongress markazi. <https://sputniknews.uz/20220308/shavkat-mirziyoev-xotin-qizlarni-8-mart-bilan-tabrikladi-23201198.html>.
2. Mirziyoev Sh. 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi», 30 dekabr 2020 yil, №276 (7778). <https://lex.uz/ru/>

¹⁰ Bekmuradov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. – 2020.436 b.

¹¹ Giddens Entoni. Sotsiologiya. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.2002 – B. 95-115.

3. Avesto. -T.: Sharq, 2000. - B.48. Avesto – tarixiy-adabiy yodgorlik. – T.: “Sharq” NMAK, 2001. B. 3-20
4. Szin-Nin Sun. Iskustvo voyni. Drevnekitayskaya mudrost Sun-Szi dlya jenshin, stremyashixsya k uspexu. – M.: EKSMO, 2008. - S.114.
5. Siaset-name. Kniga o pravlenii vazira XI stoletiya Nizam Al-Mulka/ Per., vvedeniye v izuch. pamyatnika i primecheniya prof. B.N.Zaxodera. –Moskva-Leningrad. 1949.-S.179
6. Avloniy A. Toshkent tongi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashr, 1979. – 246 b.
- 7.—Bekmuradov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. –T.: Yoshlar nashriyot uyi.–2020.
8. G‘afforova M. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlar mavqei. Monografiya.Toshkent: “Yangi kitob”, 2017. B.17.
9. Bekmuradov M.B. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2016.– B.59.
10. Bekmuradov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. – 2020.436 b.
11. Giddens Entoni. Sotsiologiya. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.2002 – B. 95-115.